

O'QUV DASTUR PASPORTI

Qayd raqami IXT-129-2024

Amal qilish muddati 2030 yilgacha



t.f.d. prof. Gaybullayev A.A.



t.f.d. dotsent. Kariev S.S.



t.f.n., dotsent. Dadabayev A.K.



Assistent Berdiabayev T.M.

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra / bo'lim	Urologiya va Andrologiya
O'quv dastur nomi	Urologiya
O'qish turi	Ixtisoslashtirish
O'quv dastur muallifi / mualliflari:	G'aybullayev A.A., Rahmatullayev B.M., Kuchkarov A.K., Berdiabayev T.M.
Siklning umumiy soati:	504 kredit

Maqsad:

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan andrologik kasalliklar diagnostik va davolash standartlari, Yevropa va Amerika androloglar jamiyatlari tavsiyalariga asoslangan holda andrologik kasalliklarni aniqlaydigan va davolaydigan mutaxassislarni tayyorlash.

Siklga taklif qilingan

mutaxassislar – kontingent:

Urologlar

Sikl vazifalari

1. Buyraklar, siydik yo'llari, erkaklar jinsiy a'zolari klinik anamniyasi va fiziologiyasi xaqida ma'lumot berish. Urologik kasalliklar semiotikasi va diagnostikasi xaqida ma'lumot berish.
2. Siydik yo'llari infeksiyalari zamonaviy diagnostikasi va davolash standartlari xaqida ma'lumot berish.
3. Siydik tosh kasalligini tashxislash va davolash standartlarini o'rgatish. Zamonaviy instrumental (rentgen, MSKT, KT, UTT) yo'llari bilan tashxislash, zamonaviy teri orkali, transuretral lazerli operativ davolash ko'nikmalarini takomillashtirish.
4. Pastki siydik yo'llari simptomlari bo'lgan bemorlarni standartlarga asoslangan holda zamonaviy tashxislash va davolash tamoiillari xaqida tinglovchilar bilimlarini mustaxkamlash.
5. Prostata bezi kasalliklari bo'lgan bemorlarda standartlarga asoslangan zamonaviy tashxislash va davolash (TUR, Xolep) usullari xaqida ma'lumot berish.
6. Siydik tanosil a'zolari jaroxatlarida tashxislash va davolashning zamonaviy tamoiillari xaqida bilimlarini mustaxkamlash.
7. Buyraklar, siydik yo'llari o'smalarida standartlarga asoslangan zamonaviy tashxislash va davolash usullari xaqida ma'lumot berish.
8. Buyraklar, peshob yo'llari va erkaklar jinsiy a'zolari rivojlanish nuqsonlari xaqida ma'lumot berish.
9. Ma'naviyat va ma'rifat darslari va kunlarini o'tkazish.
10. O'rttirilgan immunitet tanqisligi sindromi xaqida ma'lumot berish.
11. Erektile disfunktsiya, eyakulyatsiya buzilishlarini tashxislash va davolash xaqida ma'lumot berish. Erkaklar bepusthtligini tashxislash va davolash xaqida ma'lumot berish.

Sikl tarkibi

- 1 modul
Ma'naviyat va ma'rifat.
- 2 modul
Buyraklar, siydik yo'llari, erkaklar jinsiy a'zolari anamniyasi va fiziologiyasi
- 3 modul
Siydik yo'llari infeksiyasini tashxislash va davolash protokollari.
- 4 modul
Siydik tanosil a'zolari rivojlanish nuqsonlari
- 5 modul
Pastki siydik yo'llari simptomlarini tashxislash va davolash.
- 6 modul
Buyraklar va siydik yo'llari jaroxatlarini tashxislash va davolashda standart protokollar.
- 7 modul
Siydik yo'llari o'smalarini tashxislash va davolash protokollari.
- 8 modul
OIV/OITS
- 9 modul
Andrologiya

O'qish bazalari:

→ 1 Ibn Sino nomli 1-SHKB.



Simulyatsion asbob/uskunalar:

